

IKKI TIL EMAS, TO'RT TIL ZARUR

Sodiqjonova Yoqutxon Azizjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universitet 3-kurs talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqola Mahmudxo'ja Behbudiyning chet tillari bilmoqlik katta ahamiyatga ega ekanligi, tilni bilish orqali millatni rivojlantirish, dunyoqarshni o'stirish, ilmni puxta o'rganish va mutolaa jarayonida tushunchaning aniq va fikrning teran bo'lishida yordam berishi ko'rsatilgan.

Аннотация: В данной статье показано, что знание иностранных языков имеет большое значение для Махмудходжи Бехбуди, помогает развивать нацию через знание языка, развивать мировоззрение, внимательно изучать науку и делать понимание ясным и глубоким. в процессе чтения.

Annotation: This article shows that the knowledge of foreign languages is of great importance to Mahmudhoja Behbudi, that knowledge of the language helps to develop the nation, to develop the worldview, to study science carefully and to make the understanding clear and deep in the process of reading.

Kalit so'zlar: Til, millat, nasr, nazm, farmon, amir.

Ключевые слова: Язык, народ, проза, стих, указ, эмир.

Key words: Language, nation, prose, verse, decree, emir.

Har qadamda zamona uchun ko'p tilni bilishlik dasturamal bo'lgani bu hech kimga sir emas. Shunday ekan bugungi kunda ham aholi orasida tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borsa bormoqdaki, ammo aslo kamaygani yo'q. Behbudiyning "ikki til emas, to'rt til lozim,, maqolasi nafaqat o'sha zamon uchun taalluqli , balki hozirgi kunimizda ham o'z sayqalini yo'qotmagan. Behbudiy maqolasida ko'rshimiz mumkinki, to'rt til , ya'ni arabiy, turkiy, forsiy hamda rusiy tillaridan xabardor

bo'lmoq qanchalar zarurligini. Turkiy tilni bilishlikning sababi, Turkiston xalqining ba'zi qismlari turkiy tilda so'zlashganliklari, eski amir va xonlarning amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiyda yozilgani bu tilni bilish kerakligini ko'rsatadi. Fors tili unda nima uchun kerak? Maqolada forsiy ham turkiy til singari bilishlikni taqozo etadi. Sababi forsiy madrasa va udabo tilidir. Hamma bolaligidan savod chiqarib, ta'lim olmoqlikka intiladi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, avvalgi eski va yangi maktablarda forsiy nazm, nasr kitoblari orqali saboq berib kelingan. Shunday ekan, zamona adabiyotlarini bahramand bo'lish uchun ham forsiy ham muhim. Hatto forsiy adabiyotlarini ko'paytirishda ovrupaliklar milliardlab mablag' sarflashgan. Biz forsiyni bilish orqali Firdavsiy, Bedil, Sa'diy "Masnaviysi,, dan mutolaa qilib bahra olamiz. Arabiyda esa ma'lumki, barcha masalalarda shar'iy va diniy kitoblar arab tilida yozilgan va shu tilda ta'lim beriladi. Shunday ekan arabiyning ham darajasi yuqori. Jadid bobomiz rus tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojga alohida urg'u beradilar. Ya'ni " O'z nafimiz uchun ruscha bilaylik, hukumat maktablarida o'qiylik, davlat mansablariga kiraylik deya jon kuydiradi. Hatto jadid maktablarda ham rus tilini o'qitilishini targ'ib qiladi. Uning bir jumlasida "Agar rus tili jadid maktablari dasturidan o'rin oladigan bo'lsa, bu fan bo'yicha darsni rus tilini bilmagan yoki chala bilgan o'zbek yoki tojik muallimi emas, balki rus muallimi o'tishi lozim,, - deb aytadi. Sababi, til o'rganishda u qaysi til bo'lmasin, unda puxtalik talab etiladi. O'sha tildan to'liq xabari bo'lmay toliblarni o'qitish, bu ilmni yetarlicha singdira olmaslikka olib keladi. Shu tufayli ham M. Behbudiy til o'rganishda o'zining ona tilisi bo'lgan vakildan o'zganmoqlik durustroqligini olg'a suradi. Yana bir jumlasida esa Turkistonda forsiy va turkiy til ahli borligi tufayli, maktablarda bu ikki til o'qitilib kelingan, endi Turkistonda rus millati paydo bo'lgan ekan, hukumat, savdo, sanoat va boshqa ishlar ularning qo'lida ekan, bu zamonda ruscha bilmoq ham lozim. Agar ruscha bilmoq va o'qimasdan qochsak, o'zimizga zarar qilamiz deydi. Ma'lumki, til ham zamonaga qarab o'zgarib boraveradi. Zamona bir tilni talab qildimi uni o'zlashtirish foydadan holi emas.

Behbudiy rus tili bilan birga arab tilini aytib o'tadi. Sababi bu til orqali dinimizni puxta o'rganishimiz, o'zimizni anglashimiz darkor. U arab tili haqida to'xtalar ekan, quyidagi jumlaning keltiradi. "Vatanimizga va o'z dinimizga xizmat qilaylik. Zeroki, mamlakat va din rivoji uchun til - zarur., .Yana Behbudiy aytadiki, "Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdir.,, Jadid nega rus tili tiriklik va dunyo uchun muhim deyapti? Boisi, Turkistonliklar orasida millat va vatan ravnaqini himoya qilish uchun g'arb tilida ya'ni rus tilida minbarda turib gapirishga qodir biror inson topilmagan. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun rus tilini o'rganish, Rossiya Universitetlarida tahsil olib, barcha qonunlardan boxabar bo'lishligiga urg'u beradi. Bundan tashqari maqolada, til bilish orqali tarjima qilish qobiliyati shakllanishi va zamonada mavjud asarlarni rus tilidan turkiyga yoxud turkiy, forsiydan rus tiliga o'girish orqali tobora dunyoqarashimiz kengayishi, millatimiz va madaniyatimizni tanitishga bo'lgan imkoniyat ochilib boraverish to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Til o'rganishga bo'lgan talabni hozirgi zamon bilan solishtiradigan bo'lsak, o'zbek, rus va ingliz tillarini bilishlik yaxshigina ahamiyatga ega. Tillarning safini kengaytirib unga qo'shimcha tarzda yana bir tildan boxabar bo'lishlik bu nur ustiga a'lo nur. Ma'qoladan bilishimiz mumkinki, har qanday tilni o'rganishga qo'l urmaylik. Uning tubida vatan ravnaqi yotibdi. Behbudiy yoritgan til o'rganishga doir masalalar, bugungi zamonaviy hayotimizda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Behbudiy birinchilardan bo'lib til birligi g'oyasini targ'ib ham qildi. Rossiya musulmonlarining yagona tili bo'lishi kerakligi g'oyasini ilgari surdi. Va bu bo'yicha Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnoma va tajriba o'tkazdi. Bundan ko'rinib turibdiki, avvalo millat ona tilisi poydevorini mustahkam qilib qursa, o'zga tillarni ham bemalol o'rgana oladi. Demak, chet tilini yaxshi o'zlashtirish bu ona tilini suvdek bilish gap. O'z ona tilisini mukammal va g'ayri tillardan xabardor bo'lish nafaqat inson ongini yetuklikka yetkazishida, balki, xalqlar, millatlar o'rtasida mustahkam aloqani o'rnatishda turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Mahmudxo'ja Behbudiy tanlangan asarlar 2-jild.
- 2) <https://n.ziyouz.com> jadid - matbuoti
- 3) [hatto://ma'rifat.uz](http://hatto.ma'rifat.uz) umumii - o'rta - talim